

ASKOMITSETLARNING UMUMIY TAVSIFI, AHAMIYATI VA VAKILLARI

G'ofurova Muqaddasxon Shavkatjon qizi
Andijon davlat pedagogika inistituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda askomitsetlar ya’ni xaltachali zamburug’larga umumi tavsif, ularning ahamiyati va vakillari haqida ma’lumot berilgan.

Аннотация: В данной диссертации дается общая характеристика аскомицетов, то есть сумчатых грибов, их значение и представители.

Abstract: This thesis provides a general description of ascomycetes, i.e. sac fungi, their importance and representatives.

Kalit so’zlar: Askomitsetlar, diplofaza, konidiya, mitselliyl, xitridiomitset, ekzogen, saniotogamiya, tafrinomitsetlar, saxaromitsetlar.

Ключевые слова: аскомицеты, диплофаза, конидии, мицелий, кстридиомицеты, экзогенные, саниотогамия, тафриномицеты, сахаромицеты.

Key words: Ascomycetes, diplophase, conidia, mycelium, xtridiomycetes, exogenous, saniotogamy, taphrinomycetes, saccharomycetes.

Askomitsetsimonlar xaltachali zamburug’lar (Ascomycetes) – maxsus xaltachalarda rivojlanib yetiladigan sporalar orqali ko‘payuvchi zamburug’lar sinfi. 42000 dan ortiq turi bor. Ba’zi turlari jinssiz yo‘l bilan turli konidial sporalar hosil qiladi. Zamburug’ mitseliysi bir yadro (gaplofaza) hujayrali va xaltacha hosil qiluvchi qo‘sh yadro (diplofaza) hujayrali giflardan iborat. Ular asosan tana tuzilishiga va qisman xaltacha shakliga mos holda bo‘linadi. Yalang‘och xaltachalilar, ya’ni tuban askomitsetlar (Gymnoasci), meva xaltachalilar (Carpoasci) va lokuloaskomisetlar (Loculoasci) deb ataluvchi uchta kenja sinfga hamda bir necha oilalarga bo‘linadi. Keng tarqalgan, ko‘pchilik saprofitlar tuproqda, turli organik qoldiqlarda uchraydi, oziq-ovqat mahsulotlarida ko‘payib, ularni buzadi. Lishayniklar tanasida yashaydigan barcha zamburug’lar askomatsitlarga kiradi. Konidiya davrida ko‘pchilik vakillari o’simlik, hayvonlarda parazitlik qiladi, sellyulozani va har xil sanoat mahsulotlarini yemirib zarar keltiradi. Askomitsetlar mikrobiologiya sanoatida fermentlar, antibiotiklar va boshqa mahsulotlar olish maqsadida foydalilanildi. Bir qancha turlari (qo‘ziqorin, strochok, tryufel va boshqalar)dan oziq-ovqat sifatida foydalilanildi.

Xaltachali zamburug’lar (Ascomycota) quyidagi umumi tavsiflarga ega. 1. Vegetativ tana odatda tarmoqlangan, hujayralarga bo’lingan gaploid mitselliyyidan iborat. Hujayralararo to‘siqda tirqishlar bo’lib orqali hujayraning tuzilmalari, shu jumladan yadro

VOLUME-2, ISSUE-11

ham o'tadi. Asomitsetlarning hujayra devori odatda ikki qavatli, hujayralari ko'pyadroli, erysiphales tartibining zamburug'larida bir yadroli. Achitqi ko'rinishidagilari ham kam emas. Mitselli - achitqi dimorfizm ham ma'lum: bir sharoitda gifa, boshqasida achitqi hujayralar bo'ladi. 2. Aksomitsetlarni hujayrasini devorida xitin bo'lib jami polisaxaridlarni 20 - 25 % ni tashkil qiladi: bu xitridiomitsetlardagidan kam. 3. Vegetativ ko'payish mitselliyni bo'laklariga bo'linishi, achitqi hujayralarini bo'linishi tufayli ro'y beradi. Jinssiz (sporalar yordamida) ko'payishi keng tarqalgan. Vegetativ ko'payish amalda ekzogen spora - konidiyalar hosil qilish bilan sodir bo'ladi. 4. Jinsiy ko'payish turlicha o'tadi. Bu ko'pincha ko'pyadroli, gametalarga tabaqalashmagan gametangiyarlari o'zaro qo'shilishi tufayli yadroni bittasidan ikkinchisiga o'tishi bilan sodir bo'ladi. Bu zamburug'larda saniotogamiva - bitta mitselliydagi yadroni ikkinchisiga o'tib qo'shilishi bilan ham amalga oshadi. 5. Xaltachali zamburug'larning juda ko'pchiligidagi jinsiy jarayonda yadro darxol qo'shilishmay juftlik - dikarionlik hosil qiladi, bu holatda yadrolar birvarakayiga ko'p marta bo'linadi. 6. Jinsiy jarayon hosilasi - meyosporaingiy xalta yoki ask deb ataladi." Bu endogen sporalar - aksosporalar postmeyotik yadrolar bo'linib ko'p hollarda 8 tani hosil qiladi. Askosporalarni hosil bo'lishida dikarionning ikkita yadrosi qo'shilishi - kariogamiya ro'y beradi. Askosporalarning hosil bo'Mishi uchun xaltacha borligini hammasi emas, uni bir qismi sarflanadi. 7. Jinsiy jarayon va askosporali xaltachalami hosil bo'lishining intixosi har bir mazkur tur uchun o'ziga xos ko'rinishdagi meva-tanalarni hosil bo'lishga olib keladi 8. Askomiitsetlaming hayotiy davrasida gaplodavr ustunlik qiladi. Dikariodavrlik hayotiy davming qisqa muddatida ro'y beradi. Bu zamburug'lar gomotall va geterotall bo'ladi. 9. Askomitsetlarga mansublar kurrai zaminimizda uning hamma joyida tarqalgan. Askomitsetlar uchiramaydigan joylar yo'q hisobi. 10. Aksomitsetlarning ko'pchiligi antibiotiklar, vitaminlar, fermentlar va shu kabilar hosil qilishga ko'ra ular katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Ulaming ayrim turlaridan ilmiy tadqiqotlardagi muhim ob'ekt sifatida, ayniqsa genetikada ko'p foydalaniadi.

Askomitsetlaming sistematikasi: Morfologiyasi hamda molekulyar darajadagi tuzilishga ko'ra askomitsetlarni asosan uch guruhgaga bo'linadi.

1. Tafrinomitsetlar (Taphrinomycota) ularni arxiaskonmitsetlar (Archiasomycotina)-eng qadimgi va sodda tuzulgan guruh hisoblanib boshqa askomitsetlaming boshlamasi, ibtidosi deb hisoblanadi. Morfologiyasi turlicha, mitselliylari, achitqi tuzilishli, mevatana hosil qiladiganlari ham bor.

2. Saxaromitsetlar (Saecharomycatina) yoki gemiaskomitsetla(Hemiascomycotina) mitselliylari, kurtaklaydigan achitqili ko'rinishlarda.

VOLUME-2, ISSUE-11

3. Haqiqiy askomitsetlar, euaskomitsetlaor (Ascomycotina) yoki pezizomitsetlar (Pezizomycotina) mitselliysi haqiqiy mevatanali zamburug'lar guruhi.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra askomitsetlarga jami zamburug'larning 75 % gacha turlari mansub. Tuproq mikobionitining ancha qismini askomitsetlar tashkil qiladi. Suvda ham askomitsetlar ko'p. Askomitsetlar o'simliklani tekinxo'rlari hisoblanadi. Odam va hayvonlardagi tekinxo'rlar orasida askomitsetlar anchagina. Askomitsetlardan odamlar qadimdanoq achitqi sifatida (non. pivo tayyorlashda) antibiotiklar olishda foydalanib keligan. Ba'zi askomitsetlarni (qo'ziqorin, tiyufellar) oziq sifatida odamlar istemol qilishadi. Umuman olganda ,askomitsetlar tabiatda muhim o'rinni egallaydi va ko'lab sohalarda inson faoliyatiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Askomitsetsimonlar#cite_note-1
2. Botanika "Tuban o'simliklar". Sh.J. Tojiboyev, N.M.Naraliyeva. "Namangan" nashriyoti 2016
3. "Tuban o'simliklar" L.L.Velikanov va bosh. "O'qituvchi nashriyoti"-1995
4. Botanika "Tuban o'simliklar "fanidan o'quv -uslubiy majmua . X.H. Jalolov.Samarqand-2019
5. <https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/16104/11173/13661>